

## YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020- yilning yanvar–iyun oylarida Xorazm viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rirlarda – YaHM ) hajmi joriy narxlarda 8 954,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019- yilning yanvar–iyun oylari bilan taqqoslaganda 101,9 % ga o'sdi. YaHM deflyator indeksi 2019- yil yanvar–iyun oylaridagi narxlarga nisbatan 113,6 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMning shakllanishida Xorazm viloyatining qo'shgan hissasi 3,5 % ga yetdi.



### Yanvar–iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

		Mld. so'm		2019- yil yanvar– iyuniga nisbatan, % da
		2019- yil yanvar– iyun	2020- yil yanvar– iyun	
I. YaHM		7 733,3	8 954,5	101,9

*shu jumladan:*


	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	7 346,3	8 703,9	102,0
	Mahsulotlarga sof soliqlar	387,0	250,6	99,8
	Tarmoqlarning yalpi qo'sh ilgan qiymati	7 346,3	8 703,9	102,0
	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	2 952,0	3 572,7	103,7
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	1 692,7	2 014,6	102,7
	sanoat	1 132,0	1 375,3	103,7
	qurilish	560,7	639,3	100,5
<b>Xizmatlar</b>		<b>2 701,6</b>	<b>3 116,6</b>	<b>99,7</b>

		Mird. so'm		2019- yil yanvar-iyuniga nisbatan, % da
		2019- yil yanvar-iyun	2020- yil yanvar-iyun	
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	500,3	525,6	93,9
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	494,0	520,1	97,6
	boshqa xizmat tarmoqlari	1 707,3	2 070,9	102,1

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 4 784,6 ming. so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 100,2 % ga yuqoridir.



### Yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi va o'sish sur'atlari



Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiyligi YaHMning 97,2 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,8 % ini tashkil etdi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligining YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 0,8 % punktga ko'paydi va hisobot yilida 41,0 % ni tashkil etdi. Sanoat tarmog'ining ulushi 15,8 % dan iborat bo'lib, 0,4 % ga oshdi, qurilishni esa 0,3 % punktga tushdi va 7,3 % ga yetdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 35,9 % ni tashkil qildi va o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslanganda 0,9 % punktga pasaydi.




**Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi  
(jamiga nisbatan % da)**

		<i>2019- yil</i>	<i>2020- yil</i>
	<b>I. YaHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	95,0	97,2
	Mahsulotlarga sof soliqlar	5,0	2,8
	<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	40,2	41,0
	<b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>23,0</b>	<b>23,1</b>
	sanoat	15,4	15,8
	qurilish	7,6	7,3
	<b>Xizmatlar</b>	<b>36,8</b>	<b>35,9</b>

		2019- yil	2020- yil
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6,8	6,0
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,7	6,0
	boshqa xizmat tarmoqlari	23,3	23,9




## Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)



O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 103,7 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 41,0 %), sanoatda – 103,7 % (15,8 %), qurilishda – 100,5 % ni (7,3 %) ni tashkil etdi. Shuningdek, xizmatlar sohasida esa kamayish kuzatildi va – 99,7 % ni tashkil etdi (mazkur tarmoqning YaHM tarkibidagi ulushi - 35,9 %).




**Yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**



2020- yilning yanvar–iyun oylarida iqtisodiyotning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi va sanoat tarmoqlari YaHMning mos ravishda 1,4 f.p. va 0,6 f.p. ga o'sishiga ijobji hissa qo'shdi. Xizmatlar sohasi esa YaHMning o'sishiga -0,1 f.p. salbiy hissa qo'shdi.



## 2020- yil yanvar-iyun oylarida YaHM o'sishida tarmoqlarning hissasi



2020- yil yanvar–iyun oylarida YaHM deflyatori indeksi 2019- yil yanvar–iyun oylaridagi narxlarga nisbatan 113,6 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 117,1 % va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 116,7 % qayd etildi.



## Yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

